

## “TO‘Y” YOHUD JAHOLAT ZANJIRLARI

**Abduzoirova Nasiba Farmon qizi**

TDPU 3-bosqich talabasi

**O‘razbayeva Mahbuba**

Ilmiy rahbar:

TDPU dotsent, f.f.f.d., PhD.

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada shoir va dramaturg, pedagog, ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniyning “To‘y” she’ri tahlilga tortildi. Tahlil jarayonida Behbudiyning “Padarkush” drammasiga ham murojaat qilindi. Ikki ijodkor asarlaridagi mushtarak jihatlar aniqlandi.

**Kalit so‘zlar:**To‘y, detal, zanjir, boy, kambag‘al, konflikt, drama, harakter.

**Keywords:** wedding, detail, chain, rich, poor, opposition, drama, character.

Adabiyot, naqadar kuchli so‘z u bir zumda o‘z qudrati bilan sizni sehrlab qo‘yish, yoki yillar mobaynida bir asar haqida o‘ylashga majbur qilishi mumkin. “Adabiyot atomdan kuchli”<sup>1</sup> degan ta’riflar bekorga emas, albatta. O‘zbek adabiyotida shu vaqtga qadar qanchadan-qancha adabiyot darg‘alari yashab ijod qildi. Ulardan biri ma’rifatparvar Abdulla Avloniydir. U 1878-yilning 12- iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida to‘quvchi oilasida dunyoga kelgan. Abdulla Avloniy IX asr oxirlaridan boshlab jadidchilik harakati boshqaruvchilaridan biri hamda yangi uslubdagi maktab tashabbuschilaridan bo‘lgan. Avloniy bu maktablar uchun darsliklar va qo‘llanmalar yozgan. 1907-yilda “Shuhrat”, 1917-yilda esa “Osiyo” gazetalarini nashr ettirgan. Keyinchalik u “Birinchi Muallim”, “Ikkinchi Muallim”, “Tarix”, “Turkiy Guliston yohud ahloq” kabi asarlarini yozdi. Avloniy qo‘llanma va darsliklardan tashqari bir qancha lirik asarlarning ham muallifidir. Keyinchalik shoirning she’rlari “Adabiyot yohud milliy she’rlar” nomi ostida nashr qilingan. Biz Avloniyning “Adabiyot yohud milliy she’rlar” to‘plamidan o‘rin olgan “To‘y” she’rini tahlilga tortdik. Shoir lirikasini o‘qish jarayonida uning g‘azal yozish mahorati qanchalik yuksak ekanligiga bir qadar amin bo‘lamiz. Uning betakror so‘z qo‘llash qobiliyati kishini o‘ziga tortishi shubhasiz. Bu she’rni ijtimoiy-biografik ruhdagi she’r desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Adib yashagan davrda aynan shunday voqealar keng tus

<sup>1</sup> Abdulla Qahhor “Tanlangan asarlar”.2-jild 2015.

olgan. Ilm sohibi bo'lish o'rniga o'tkinchi orzu-havas ketidan chopish tobora ko'payib bormoqda edi. Qalamkash tabaqalar orasidagi konfliktga ham alohida urg'u bergan. Masalan, quyidagi baytga e'tibor qaratamiz:

Kambag'al kelib to'yga kirsam, ket, nozi bor, bor-u,  
Boylar kelsa, to'rga olib osh-u to'n tayyor -o'v.  
Turkistonda o'rnab qolmish to'y degan isrofa  
Boylar yerlar yog'liq oshni, kambag'al ozor-o'v.

Shoir she'rda "boylar", "kambag'allar" so'zlarini qo'llagan. O'zbek xaqi tug'ilibdiki to'y-tamosha qilish bilan yashaydi. Farzandi tug'ilib beshikka solingandan to'y uchun taraddud qiladi. Shu sababdan to'y biz uchun marosim. Bu marosimda otabobolarimiz urf-odatlariga ko'ra barcha birday izzat qilinishi zarur. Lekin bizning jamiyat shunday bir ahvolga kelgan ediki, bu muqaddas qadriyatlar allaqachon xotiradan ko'tarilgan. Vaholanki, insonning jamiyatdagi o'rnini uning mansab, maldunyosi hal qilsa. Bu qanchalik yomon oqibat. Adib buning sababini ham she'r davomida keltirib o'tgan.

Bizning dinda bormi ayting to'rt kun osh bermog'-o'  
Boyni siylab bechorani ko'ksiga tortar-o'v

Yuqoridagi misralar orqali adib shunday ahvolga tushishga xalqning o'zi aybdor demoqda. Ya'ni ularning ilmsizligi jaholatdaligi sababdir demoqchi. Dinidan xabarsiz insonning dunyo ilmlaridan ham xabari bo'lmaydi. Ijodkor barcha muommolarning kelib chiqish sababi ham mana shunda deb ko'rsatadi.

Haq der, bizga yordam qil deb notavonlarg'a-o'  
Ochni qo'yib to'qqa bersak tangrimiz bezorov.

Ijodkor xalqning bu ahvolga kelishiga nafaqat diniy ilmsizlik balki imning o'zi yo'qligini sabab qilib ko'rsatadi. Ijodkor misradagi tangrimiz bezorov so'zlarida ilmsiz insondan rahmon ham yuz o'giradi degan ma'noni yashirgan. Tangri yuz o'girgan millatning kelajagi ertasi qanday bo'ladi. Avloniyning chuqur iztirobga solgan masala ham shunda.

Kulgan bizning bu ishlarga boshqa millatlar-o'  
Pul sarf etib xajviy bo'lmoq bizga ne darkor-o'

Yuqoridagi misralarda esa endi vaziyat tobora jiddiylashgani, millatimizning bu holi boshqa xalqlarda kulgu uygʻotayotgani haqida soʻz boradi. Adib sheʼrining keyingi baytlarida pushaymonlik va achinish ruhi ustunlik qiladi.

Bizning toʻylar koʻrinib turgan maxzani bidat-oʻv  
Boʻlgʻumizdir aybimizgʻa biz qachon iqror-oʻv

Avloniy bu sheʼri davomida endigi davr bizni bu ahvolimizga qoʻymasligi uygʻonish payti kelganiga ishora qiladi.

Bosh devorga taq etgan soʻng boʻlamiz xushyor-ov

Ushbu baytga “Bosh borib devorga urildi” maqoli singdirilib yuborilgan boʻlib, soʻngi pushaymon oʻzinga dushman qabilidagi maʼnoni anglatadi. Adib xalqni kech boʻlmasdan uygʻonishga undaydi. Avloniy ijodining asosiy qismini daʼvat ruhidagi sheʼrlar tashkil qiladi. Afsuski, uning bu harakatlari besamar ketayotgani ilmsizlik balosi daraxt badaniga tushgan qurt kabi millat ongini ayovsizlarcha kemiryotgani tobora havotirga solardi.

“Bilmam qachon biz boʻlamiz uyqudan bedorov”<sup>1</sup> misralari soʻzimizning yorqin dalilidir. Sheʼr yakuniga qadar asar bosh mavzusi saqlanib qolgan boʻlib toʻy detaliga qayta- qayta murojaat qilingan.

Toʻyga borib oshlarni yeb qornimiz siypab oʻshul kun  
Umr oʻtkazamiz biz butun bekor-ov.

Yaʼni bizning shunday toʻy marakadan boshqa tashvishimiz yoʻq. Zamon kishilari faqat bugunim oʻtsa boʻladi qabilida ish koʻrishidan qattiq noliydi. Bugun qorni toʻysa boʻldi. Ertaning kelajagi haqida oʻylab ham oʻtirmaydi. Aslida ilmsizlik kishini shunday holga keltiradi. Qorin toʻyishi va uxlashdan boshqa gʻami yoʻq Individga<sup>2</sup> aylantiradi.

Essiz toʻyga sarf boʻladir aqchalar xijron-oʻv  
Ilm uyidan qizgʻonadir pullarni boylar-oʻv

Aynan shu bayt beixtiyor Behbudiyning “Padarkush” asarini yodga soladi. “Padarkush” asarida ham aynan boy oʻz pullarini ilm uchun, hidoyat uchun

<sup>1</sup> A. Avloniy “Tanlangan asarlar” 27 b.

<sup>2</sup> Individ – ong ehtiyojlari yoʻq mustaqil yashayolmaydigan mavjudot

sarflashdan, farzandini o'qitishdan qizg'onadi. Va buning qanday yomon oqibatlarga olib kelishini ko'ramiz. Madrasa ko'rmagan harf tanimagan o'g'il oxir oqibat o'z uyiga o'g'irlikka tushadi, o'z padari o'limiga sabab bo'lib Sibirga surgun qilinadi. Ayanchli taqdir, lekin ming afsuski, farzandning shu holga tushishiga otaning o'zi aybdor. Vaqtida harf tanitganida bunday oqibat yuz bermagan bo'lardi.

Xulosa qilib aytganda A.Avloniy, M.Behbudiy, H.Niyoziy kabi jonkuyar ijodkorlarning barcha asarlari xalqni ilm-ma'rifatli qilish, o'z tarixi va millatini anglagan avlodni tarbiyalash ruhida yozilgan. Qancha davrlar, zamonlar o'tmasin bu ijodkorlar yaratgan asarlar o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydi. Avlodlar uchun atalgan mangu bong bo'lib yangrayveradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Avloniy A. Tanlangan asarlar. – Toshkent.: Manaviyat. 2009.
2. Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. –Toshkent: Akademnashr, 2010.– 397 b.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: 2018. – 478 b.
4. Ўразбаева М. Аёл характери ни очишда бадий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 b.
5. Ўразбаева М. Ҳозирги ўзбек романчилигида аёл образи. Т., ILM ZIYO ZAKOVAT. 2023. 120b.
6. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go'zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.